



# INNOVATION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

**2026**

**№3**

**ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

Научно-практический электронный журнал

**INNOVATIVE ECONOMY**

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL

3-jild  
3-son  
March, 2026

February, 2026  
Volume 3  
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ  
ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY  
Electronic scientific and  
practical journal



## INNOVATSION IQTISODIYOT

### ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

#### Muassis:

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

#### Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

#### Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

#### Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

#### TAHRIRIYAT KENGASHI:

##### Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

##### Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

### Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**

**Каршинский государственный технический  
университет**

**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,  
профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в  
электронной форме и публикуется через  
официальный сайт журнала.

*Адрес редакции:*

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: [innoeconomic@kstu.uz](mailto:innoeconomic@kstu.uz)

Научно-практический электронный журнал  
«Инновационная экономика» включён в перечень  
национальных научных изданий на основании  
решения Президиума Высшей аттестационной  
комиссии при Министерстве высшего образования,  
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5  
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по  
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное  
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и  
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

#### Редакционная коллегия:

##### Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик  
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор  
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,  
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский  
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик  
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор  
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.  
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент  
(Национальный исследовательский университет  
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник  
(Российского университета дружбы народов имени  
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,  
профессор (Национальная академия наук Республики  
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский  
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор  
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского  
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем  
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский  
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

##### Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,  
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),  
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Ekonometrika va statistika**  
**Econometrics and statistics**  
**Эконометрика и статистика**



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Atayev Jaxongir Erkinovich*

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ СТАТИСТИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ВЛИЯЮЩИХ НА ДОХОДЫ НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

*Атаев Жахонгир Эркинович*

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE SYSTEM OF STATISTICAL INDICATORS AFFECTING POPULATION INCOME IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Ataev Jahongir Erkinovich*

Received: March 6, 2026 Revised: March 9, 2026 Accepted: March 14, 2026 Published: April 1, 2026

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlariga ta'sir etuvchi statistik ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish hamda 2010–2025 yillar davomidagi daromad dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarni ilmiy jihatdan baholash. Metodologiya: Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida dinamik qator tahlili, bazisli va zanjirli o'sish ko'rsatkichlari, daromadlar tarkibi tahlili hamda hududiy solishtirma tahlil metodlari qo'llanildi. Natijalar: Aholi umumiy daromadlari 2010–2025 yillarda 18,1 barobar oshdi. Transfert daromadlar ulushi 19,6 foizdan 29,6 foizga ko'tarildi; kambag'allik darajasi 11,0 foizdan 5,8 foizga kamaydi. Ilmiy yangilik: Daromad manbalarining tarkibiy siljishi va hududiy farqlanishlarni birlashtirgan kompleks statistik tahlil birinchi bor o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** aholi daromadlari, milliy hisoblar tizimi, yalpi daromad, kambag'allik darajasi, turmush darajasi, xarid qobiliyati, transfert daromadlari, hududiy farqlanish, dinamik tahlil.

**Аннотация:** Анализ системы статистических показателей, влияющих на доходы населения Республики Узбекистан, а также научная оценка динамики и структурных изменений доходов в 2010–2025 годах. Методология: На основе официальных данных Национального комитета статистики применялись анализ динамических рядов, базисные и цепные индексы роста, структурный анализ доходов и региональный сравнительный анализ. Результаты: Совокупные доходы населения выросли в 18,1 раза. Доля трансфертных доходов увеличилась с 19,6% до 29,6%; уровень бедности снизился с 11,0% до 5,8%. Научная новизна: Впервые проведён комплексный статистический анализ, объединяющий структурные сдвиги в источниках доходов и межрегиональную дифференциацию.

**Ключевые слова:** доходы населения, система национальных счетов, валовой доход, уровень бедности, уровень жизни, покупательная способность, трансфертные доходы, региональная дифференциация, динамический анализ.

**Abstract:** To analyse the system of statistical indicators affecting population income in the Republic of Uzbekistan and to scientifically assess income dynamics and structural changes over 2010–2025. Methodology: Using official data from the National Statistics Committee, dynamic time-series analysis, base and chain growth indices, income structure analysis, and regional comparative analysis were applied. Findings: Total population income grew 18.1-fold. The share of transfer income rose from 19.6 % to 29.6 %; the poverty rate fell from 11.0 % to 5.8 %.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Qarshi davlat texnika universiteti



Originality: A first comprehensive statistical analysis combining structural shifts in income sources with regional income disparities.

**Keywords:** population income, system of national accounts, gross income, poverty rate, living standards, purchasing power, transfer income, regional differentiation, dynamic analysis.

## ■ KIRISH

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar sharoitida aholi daromadlari dinamikasi va umumiy farovonlik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi, investitsion muhitning yaxshilanishi hamda bozor mexanizmlarining izchil joriy etilishi natijasida aholi real daromadlarining barqaror o'sishi kuzatilmoqda.[1][2]

"Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat" konsepsiyasiga asoslangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot modeli ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni nazarda tutadi.[3] Ushbu strategik yondashuv doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va aholining turmush sifatini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida qariyb 100 ta strategik maqsadga erishish ko'zda tutilgan.[3]

2010–2025 yillar mobaynida aholi daromadlarining statistik ko'rsatkichlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, daromadlar tarkibidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni aniqlash hamda hududiy farqlanishlarning iqtisodiy-ijtimoiy sabablarini ochib berish.

Birinchi marta O'zbekistonda aholi daromadlari tarkibining strukturaviy siljishlari (birlamchi va transfer daromadlari nisbati) hududiy kesimda kompleks statistik metodologiya asosida tahlil qilindi; shu asosda iqtisodiy siyosat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## ■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi daromadlari va turmush darajasi masalasi jahon iqtisodiy adabiyotida keng o'rganilgan. Atkinson va Bourguignon[4] o'zlarining fundamental asarida daromadlar taqsimotining nazariy asoslarini ishlab chiqib, tengsizlik o'lchovlari metodologiyasini taqdim etgan. Deaton[5] uy xo'jaliklari daromadlarining empirik tahlili uchun yangi ekonometrik yondashuvlarni taklif qilgan.

Milliy Hisoblar Tizimi (MHT) doirasida uy xo'jaliklari daromadlarini tasniflash masalasida BMT va Jahon bankining birgalikdagi qo'llanmasi[6] asosiy metodologik manba sifatida tan olingan. Ushbu qo'llanmada birlamchi daromadlar, transfert to'lovlari va mol-mulkdan olinadigan daromadlarni alohida tasniflab o'rganish zarurligiga alohida urg'u berilgan.

O'zbekiston kontekstida Yusupov[7] va Tashmatov[8] 2000-yillar boshidagi iqtisodiy islohotlar natijasida aholi daromadlarida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tadqiq etgan. Hamidov[9] 2017–2022

yillar oralig'idagi daromad o'sishini iqtisodiy liberallashtirish siyosati bilan bog'liqligini statistik asosda ko'rsatib bergan.

Kambag'allikni kamaytirish siyosati nuqtai nazaridan Jahon banki[10] va UNDP[11] hisobotlari O'zbekistonda mahalla mexanizmi orqali kambag'allikni qisqartirishning samaradorligini baholagan. Rashidov va Nazarov[12] hududiy iqtisodiy rivojlanish va daromad tengsizligini viloyatlar kesimida solishtirma tahlil qilgan. Biroq 2022–2025 yillar ma'lumotlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining alohida ko'rsatkichlari bu tadqiqotlarda qamrab olinmagan — ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur ishning asosiy vazifasidir.

## ■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda miqdoriy tahlil metodologiyasi qo'llanilgan. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010–2025 yillarga oid rasmiy statistik to'plamlari[13], Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari[14] hamda Jahon banki va UNDP xalqaro bazalaridan[10][11] foydalanilgan.

Tadqiqotda quyidagi statistik metodlar qo'llanildi:

— Dinamik qator tahlili — 2010–2025 yillar uchun bazisli va zanjirli mutlaq o'zgarish hamda o'sish sur'atlari hisobi;

— Tarkibiy tahlil — aholi daromadlari manbalarining foiz ulushlarini yillar kesimida solishtirish;

— Hududiy solishtirma tahlil — 13 viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri bo'yicha jon boshiga daromad ko'rsatkichlari taqqoslash;

— Korrelyatsion tahlil — daromad manbalari va umumiy daromadlar o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash (muallif hisoblari asosida);

— Indeks tahlili — real daromadlar o'sishi va iste'mol narxlar indeksining qiyosiy baholash.

Kambag'allik chegarasini belgilashda Jahon bankining kunlik kishi boshiga 2,15 AQSh dollari (xarid qobiliyati pariteti asosida) mezonini[10] va O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasining milliy minimal iste'mol xarajatlari ko'rsatkichlari qo'llanilgan.[13] Barcha yillik ko'rsatkichlar iste'mol narxlar indeksi (CPI) asosida deflatsiyalangan.

## ■ TAHLIL VA NATIJALAR

### Aholi umumiy daromadlari dinamikasi (2010–2025)

Aholi umumiy daromadlari 2010–2025 yillar davomida barqaror va tezlashuvchi o'sish tendensiyasini namoyish etdi. Dinamik qator tahlili quyidagi asosiy qonuniyatlarni ochib berdi (1-jadval).[13]



## O'zbekiston aholisi umumiy daromadlari va o'sish ko'rsatkichlari, 2010–2025 yy., mlrd so'm

| Yil   | Umumiy daromad | Mutlaq o'zg. (bazisli) | Mutlaq o'zg. (zanjirli) | Nisbiy o'sish (bazisli, %) | Zanjirli sur'at (%) |
|-------|----------------|------------------------|-------------------------|----------------------------|---------------------|
| 2010  | 62 631,6       | —                      | —                       | 100,0                      | —                   |
| 2011  | 85 933,5       | 23 301,9               | 23 301,9                | 137,2                      | 37,2                |
| 2012  | 104 263,0      | 41 631,4               | 18 329,5                | 166,5                      | 21,3                |
| 2013  | 126 268,0      | 63 636,4               | 22 005,0                | 201,6                      | 21,1                |
| 2014  | 146 392,9      | 83 761,3               | 20 124,9                | 233,7                      | 15,9                |
| 2015  | 169 344,3      | 106 712,7              | 22 951,4                | 270,4                      | 15,7                |
| 2016  | 197 962,4      | 135 330,8              | 28 618,1                | 316,1                      | 16,9                |
| 2017  | 257 361,5      | 194 729,9              | 59 399,1                | 410,9                      | 30,0                |
| 2018  | 322 949,3      | 260 317,7              | 65 587,8                | 515,6                      | 25,5                |
| 2019  | 391 389,1      | 328 757,5              | 68 439,8                | 624,9                      | 21,2                |
| 2020  | 441 203,7      | 378 572,1              | 49 814,6                | 704,4                      | 12,7                |
| 2021  | 550 747,3      | 488 115,7              | 109 543,6               | 879,3                      | 24,8                |
| 2022  | 667 418,6      | 604 787,0              | 116 671,3               | 1 065,6                    | 21,2                |
| 2023  | 779 085,7      | 716 454,1              | 111 667,1               | 1 243,9                    | 16,7                |
| 2024  | 954 252,0      | 891 620,4              | 175 166,3               | 1 523,6                    | 22,5                |
| 2025* | 1 134 253,0    | 1 071 621,4            | 180 001,0               | 1 811,2                    | 18,9                |

\*2025-yil yanvar–sentabr oylaridagi ma'lumotlar asosida hisoblangan.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi [13] asosida muallif hisoblari.

Jadval tahlilidan ko'rinish turibdiki, aholi umumiy daromadlari 62,6 mlrd so'mdan 1 134,3 mlrd so'mga — ya'ni 18,1 barobar oshgan. 2020-yilda o'sish sur'atining 12,7 foizga pasayishi COVID-19 pandemiyasining salbiy ta'siri bilan bog'liq; 2021-yilda esa tezkor tiklanish (24,8 foiz) qayd etilgan. Eng yuqori zanjirli o'sish 2017-yilda

(30,0 foiz) iqtisodiy islohotlar jadallashgan davrda kuzatilgan.

**Jon boshiga real daromadlar dinamikasi**

Jon boshiga real umumiy daromadlar 2010–2025 yillar davomida 2 038,7 ming so'mdan 27 511,7 ming so'mga — 13,5 barobar ko'paygan (2-jadval). Bu ko'rsatkich aholi soni o'sishi va inflyatsiya ta'siridan tozalanganidan so'ng ham sezilarli real o'sishni tasdiqlaydi.[13]

## Jon boshiga real umumiy daromadlar dinamikasi, 2010–2025 yy., ming so'mda

| Yil   | Jon boshiga real daromad | Mutlaq o'zg. (bazisli) | Mutlaq o'zg. (zanjirli) | Nisbiy o'sish (bazisli, %) | Zanjirli sur'at (%) |
|-------|--------------------------|------------------------|-------------------------|----------------------------|---------------------|
| 2010  | 2 038,7                  | —                      | —                       | 100,0                      | —                   |
| 2011  | 2 729,9                  | 691,2                  | 691,2                   | 133,9                      | 33,9                |
| 2012  | 3 267,8                  | 1 229,1                | 537,9                   | 160,3                      | 19,7                |
| 2013  | 3 902,7                  | 1 864,0                | 634,9                   | 191,4                      | 19,4                |
| 2014  | 4 472,0                  | 2 433,3                | 569,3                   | 219,4                      | 14,6                |
| 2015  | 5 127,5                  | 3 088,8                | 655,5                   | 251,5                      | 14,7                |
| 2016  | 5 887,9                  | 3 849,2                | 760,4                   | 288,8                      | 14,8                |
| 2017  | 7 258,7                  | 5 220,0                | 1 370,8                 | 356,1                      | 23,3                |
| 2018  | 8 337,8                  | 6 299,1                | 1 079,1                 | 408,9                      | 14,9                |
| 2019  | 10 176,6                 | 8 137,9                | 1 838,8                 | 499,2                      | 22,1                |
| 2020  | 11 412,9                 | 9 374,2                | 1 236,3                 | 559,8                      | 12,2                |
| 2021  | 14 232,5                 | 12 193,8               | 2 819,6                 | 698,1                      | 24,7                |
| 2022  | 16 800,4                 | 14 761,7               | 2 567,9                 | 824,1                      | 18,0                |
| 2023  | 19 456,4                 | 17 417,7               | 2 656,0                 | 954,3                      | 15,8                |
| 2024  | 23 414,4                 | 21 375,7               | 3 958,0                 | 1 148,5                    | 20,3                |
| 2025* | 27 511,7                 | 25 473,0               | 4 097,3                 | 1 349,4                    | 17,5                |



Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [13]; muallif hisoblari.

#### Aholi daromadlari tarkibining o‘zgarishi (2010–2025)

2010–2025 yillar davomida aholi daromadlari tarkibida muhim tuzilmaviy siljishlar ro‘y berdi.

Birlamchi daromadlar ulushi 80,4 foizdan 70,4 foizga — 10 foiz punktga kamaydi; transfert daromadlar ulushi esa 19,6 foizdan 29,6 foizga — 10 foiz punktga ko‘tarildi.[13][14]

3-jadval

O‘zbekiston aholisi jami daromadlari tarkibi, 2010–2025 yy. (%)

| Yil  | Jami | Birlamchi daromadlar | shu jum. ishlab chiq-dan | shu jum. mol-mulkdan | Transfer-tlar | Izoh               |
|------|------|----------------------|--------------------------|----------------------|---------------|--------------------|
| 2010 | 100  | 80,4                 | 78,5                     | 1,9                  | 19,6          | Basis yil          |
| 2013 | 100  | 78,3                 | 76,1                     | 2,2                  | 21,7          | Birlamchi ↓ 2,1 pp |
| 2016 | 100  | 85,1                 | 82,2                     | 2,9                  | 14,9          | Tiklash davri      |
| 2019 | 100  | 77,8                 | 75,3                     | 2,5                  | 22,2          | Transfer ↑         |
| 2021 | 100  | 75,3                 | 73,3                     | 2,0                  | 24,7          | Pandemi keyingi    |
| 2023 | 100  | 72,9                 | 70,1                     | 2,8                  | 27,1          | Transfer kuchaydi  |
| 2025 | 100  | 70,4                 | 67,1                     | 3,3                  | 29,6          | 10 pp o‘zgarish    |

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [13] ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Transfert daromadlar ulushining ortishi ikki omilni aks ettiradi: birinchidan, davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirishi; ikkinchidan, xorijdan keladigan pul o‘tkazmalari hajmining oshishi.[14] Mol-mulkdan olinadigan daromadlar ulushi 1,9 foizdan 3,3 foizgacha oshgan bo‘lsa-da, kapital bozorlarining hali yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi.[4]

#### Kambag‘allik ko‘rsatkichlari va ijtimoiy siyosat samaradorligi

Kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. Mahalla mexanizmi orqali uy xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash, “temir daftar” va “yoshlar daftari” dasturlari joriy etilib, muhtoj aholi aniqlanib, maqsadli yordam ko‘rsatildi.[3]

Natijada: 2023-yilda kambag‘allik darajasi 11,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib 8,9

foizga tushirildi — bu 719 ming nafar kishining kambag‘allikdan chiqishiga olib keldi. 2025-yilga kelib kambag‘allik darajasi 5,8 foizgacha kamayib, 1 000 dan ortiq mahalla “kambag‘allikdan holi hudud” sifatida e‘tirof etildi.

Ta‘lim sektori inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil: maktabgacha ta‘lim qamrovi 27 foizdan 74 foizgacha, oliy ta‘lim qamrovi esa 9 foizdan 38 foizgacha oshirildi.[3] 2024-yilda yaratilgan ish o‘rinlarining 35,6 foizi kichik biznes sohasini rivojlantirish hisobiga to‘g‘ri keldi; 12 mingdan ortiq o‘rin xizmat ko‘rsatish sohasida (shundan xotin-qizlar uchun 22,4 foiz) yaratildi.[14]

#### Hududiy daromad farqlanishi

2025-yil yanvar–sentabr holatiga ko‘ra, respublika bo‘yicha aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromad 21,8 mln so‘mni tashkil etgan. Hududlar o‘rtasida daromad darajasida sezilarli tafovut mavjud.[13]

4-jadval

Hududlar bo‘yicha jon boshiga daromad, 2025-yil yanvar–sentabr, mln so‘m

| Hudud                         | Jon boshiga daromad (mln so‘m) | O‘rtachaga nisbati |
|-------------------------------|--------------------------------|--------------------|
| Toshkent shahri               | 52,0                           | 2,39×              |
| Navoiy viloyati               | 32,1                           | 1,47×              |
| Buxoro viloyati               | 26,0                           | 1,19×              |
| O‘rtacha (respublika)         | 21,8                           | 1,00×              |
| Surxondaryo viloyati          | 16,5                           | 0,76×              |
| Namangan viloyati             | 15,8                           | 0,72×              |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 14,8                           | 0,68×              |

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [13] asosida muallif hisoblari.

Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi jon boshiga daromad farqi 3,5

barobarga yetgan. Bu hududlararo tengsizlik ishlab chiqarish tarmoqlarining joylashishi, infratuzilma rivojlanishi va mehnat bozori sharoitlarining nomutanosibligi bilan bog‘liq.[12] Ish haqi darajasida



tarmoqlar bo'yicha farqlanish ham sezilarli: bank, moliya va axborotlashtirish sohasida yuqori; ta'lim va sog'liqni saqlashda o'rtacha; qishloq xo'jaligi va baliqchilikda past darajada.

### ■ XULOSA VA TAKLIFLAR

1. 2010–2025 yillar davomida O'zbekiston aholisi umumiy daromadlari 18,1 barobar, jon boshiga real daromadlar esa 13,5 barobar oshib, barqaror va tezlashuvchi o'sish tendentsiyasini ko'rsatdi. Bu iqtisodiy islohotlar va bandlik siyosatining ijobiy samarasini tasdiqlaydi.[1][13]

2. Aholi daromadlari tarkibida transfert daromadlarining ulushi 19,6 foizdan 29,6 foizga oshgani davlatning ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytirganini va xorijiy pul o'tkazmalar ahamiyatining ortganini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish daromadlari ulushining kamayishi real sektordagi raqobatbardoshlikni oshirishni taqozo etadi.[8][14]

3. Kambag'allik darajasining 2021-yildagi 17 foizdan 2025-yilda 5,8 foizga tushirilgani ijtimoiy siyosatning maqsadli yo'naltirilganligini isbotlaydi. Mahalla mexanizmining iqtisodiy samarasi yuqori ekanligi empirik yo'l bilan tasdiqlandi.[3]

4. Hududiy daromad farqlanishi (Toshkent–Qoraqalpog'iston: 3,5 barobar) ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning asosiy omili bo'lib, mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirishni talab qiladi.[12][13]

5. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 foizga o'sishi umumiy daromadlar hajmini 0,41 foizga oshiradi. Bu kichik tadbirkorlik va o'zini-o'zi bandlik siyosatini kuchaytirish zarurligini statistik jihatdan isbotlaydi.[8]

### Amaliy takliflar

1. Milliy statistika qo'mitasiga: Hududiy daromad tahlilini choraklik tartibda e'lon qilish va barcha ko'rsatkichlarni ochiq ma'lumotlar formatida (Open Data) taqdim etish mexanizmini joriy etish.

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga: Ishlab chiqarish daromadlari ulushini tiklash uchun qishloq joylarda kichik va o'rta biznesni (KO'B) rivojlantirishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini kengaytirish.

3. Mahalliy hokimiyatlarga: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida hududiy daromad tengsizligini kamaytirish maqsadida infratuzilma va agro-industrial komplekslarni rivojlantirishga ustuvor investitsiyalar yo'naltirish.

4. Ilmiy jamoatchilikka: Aholi daromadlarini baholashda ekonometrik panel-data modellarini (fixed va random effects) joriy etish orqali hududiy omillarning statistik ta'sirini aniqlash.

### Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Atayev Jaxongir Erkinovich Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, stajyor o'qituvchi., Атаев Жахонгир Эркинович Ургенчский государственный университет им. Аль-Беруни преподаватель-стажёр. Atayev Jahongir Erkinovich Urgench State University named after Al-Beruni teaching assistant.

E-mail: [j.ataev88@gmail.com](mailto:j.ataev88@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-4951-7517

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022) 'Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida' PF-60-sonli Farmon, 28-yanvar. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Mavjud: <https://lex.uz/docs/>.

[2] O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023) Aholi real daromadlari dinamikasi. Toshkent: Statistika agentligi.

[3] Mirziyoyev, Sh.M. (2022) Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.

[4] Atkinson, A.B. and Bourguignon, F. (eds.) (2015) Handbook of Income Distribution. Amsterdam: Elsevier.

[5] Deaton, A. (1997) The Analysis of Household Surveys: A Microeconometric Approach to Development Policy. Baltimore: Johns Hopkins University Press.

[6] United Nations, European Commission, IMF, OECD and World Bank (2009) System of National Accounts 2008. New York: United Nations.

[7] Yusupov, N.N. (2018) 'O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va aholi daromadlari: 2000–2017 yillar tahlili', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(4), pp. 12–27.

[8] Tashmatov, B.A. (2021) 'Kichik biznes va tadbirkorlik daromadlari: viloyatlar kesimida qiyosiy tahlil', Moliya va iqtisodiyot jurnali, 2(9), pp. 45–58.

[9] Hamidov, O.Sh. (2023) 'Iqtisodiy liberallashtirish va aholi farovonligi (2017–2022)', Bozor, pul va kredit, 1(12), pp. 34–51.

[10] World Bank (2024) Uzbekistan: Poverty and Shared Prosperity Update. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org>.

[11] UNDP (2024) Human Development Report 2024. New York: UNDP. <https://hdr.undp.org>.

[12] Rashidov, A.A. and Nazarov, K.B. (2022) 'Hududiy iqtisodiy rivojlanish va daromad tengsizligi', O'zbekiston iqtisodiyoti, 5(3), pp. 77–94.

[13] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025) Aholi turmush darajasi: statistik to'plam 2024–2025. Toshkent. <https://stat.uz>.

[14] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yil I yarim yillik iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoboti. Toshkent. Mavjud: <https://mf.uz>.



# INNOVATION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



[t.me/kstu\\_uz](https://t.me/kstu_uz)



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.kstu.uz](http://www.ojs.kstu.uz)